

## O'ZGA TILLI GURUHLARDA O'ZBEK TILINI LUG'ATLAR VOSITA O'QITISHDA INTERFAOL O'YINLARNING AHAMIYATI

Rahimova Maktuba Iqboljonovna

Namangan Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini o'rgatishning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot beriladi. O'zbek tilini o'qitishning asosiy tamoyil va jihatlari, unda interfaol usullar va ularning ahamiyati, lug'atlar bilan ishlashda interfaol usullarning ahamiyati izohlab o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** uzviylik, metod, interfaol o'yin, lug'at, savodxonlik, imlo, so'z, ta'lim.

**Abstract:** The article provides information about the specific aspects of teaching the uzbek language groups. The main principles and aspects of teaching the uzbek language, interactive methods and their importance of interactive methods in working with dictionaries are explained.

**Key words:** unity, method, interactive method, dictionary, literacy, spelling, word, education

### KIRISH

Umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining ta'lim o'zga tilda olib boriladigan guruhlari uchun o'zbek tili ta'limi mazmuni, yangi metodlari haqida bir qancha risola, dastur, qo'llanmalar mavjud. So'nggi paytda turli muqobil darsliklar yaratilmoqda va qo'llanilmoqda. Umuman olganda, ikkinchi tilni o'qitish metodikasida xilma-xil yondashuvlar mavjud, masalan, an'anaviy tizimli, indukivongli, funsional-semantik, kommunikativ, o'qish orqali yondashuv va boshqalar.

O'zbek tili o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida boy tajriba to'plagan bo'lsada, bu fanning o'qitilishi bilan bog'liq bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, ta'lim jarayoniga bir qator zamonaviy texnologiyalar kirib keldi va kirib kelmoqda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari yangilandi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsliklar yaratildi. Bular bilan bog'liq qarashlar va tahlillar, uslubiy ko'rsatmalar o'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganish obyektiga aylanishi kerak.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Til o‘qitish va uning o‘ziga xos jihatlari ko‘pgina metodist olimlar tomonidan o‘rganilgan va bu ish hozir ham yangi usul va izlanishlar bilan boyib bormoqda. Masalan, o‘zbek tilini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari S.Matchonov, X.G‘ulomova, Q.Abdullayeva, M.Usmonbekova, M.G‘ulomov, A.Yo‘ldoshev, S.Axtamov kabi bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So‘z ma’nosini tushuntirish bilan birga bu so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atiga kiritish uchun har bir darsda rejalashtirilgan so‘z ustida izchil, puxta, doimiy ish olib borib, quyidagicha metod va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

“Tezkorlik” o‘yini. Mazkur o‘yinni tashkillash uchun doskaga lug‘at ishida o‘rganilgan so‘zlar yoziladi. O‘quvchilardan shu so‘zlar mazmunini izohlab berishlari so‘raladi. Bu o‘yin guruhlarga bo‘lish orqali va qog‘ozga yozilgan tayyor so‘zlar vositasida amalga oshirilsa, maqsadga erishish tezroq bo‘ladi va dars jarayonida vaqtadan yutiladi. Bu esa darsni samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

“So‘zdan so‘z tuzish” o‘yinida ham o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Avvaldan 2 yoki 3 ta so‘z yozilgan A4 formatdagi qog‘oz tarqatiladi. O‘quvchilar belgilangan vaqt davomida so‘zlarning bo‘g‘inlari almashib ketgan qismlaridan so‘zlar hosil qiladilar. Ko‘p so‘z tuzgan guruh rag‘batlantiriladi.

Kat	Sa	To‘l	lik
tah	o	Bar	kam
ho	ta	Ri	yot
Mus	Kun	Da	qin
vat	Meh	Ha	bo

Mustahkam, to‘lqin, katta, kundalik, mehribon, barhayot so‘zлari yashiringan.

“Moslikni aniqlang” o‘yini. Bu o‘yinni tashkillash uchun 1-guruh o‘quvchilariga so‘zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Keyingi guruhga esa o‘qituvchi o‘scha so‘zning mazmuniga mos jumla, ma’nodosh so‘z yozilgan kartochkalarni tarqatadi. O‘qilgan ma’lumot kimning kartochkasidagi so‘zga mos kelsa, o‘rnidan turib o‘qib beradi. Keyingi safar esa topshiriqlar ikki guruhda almashinishi mumkin.

S.Axtamov “Ona tili (O‘zbek tili)ni o‘qitishda zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish” nomli maqolasida “Kakografiya ” usulini alohida qayd betib, uning afzalliliklariga to‘xtalib o‘tgan [1, 2-bet]. Unga ko‘ra , muayyan maqsadni ko‘zlab xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan matnni tuzattirish orqali o‘quvchilarga imloni o‘rgatish usuli sanaladi. Bu usulning ham samarasi yaxshi ekanligini ta’kidlash barobarida , uni o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga undaydi.

“Zukkolik” o‘yini. Guruhlarga konvert tarqatiladi. Konvertda 5 ta gap va shu gapda ishtirok etgan bir so‘z mazmunini izohlovchi 5 ta jumla yoziladi. O‘quvchilar shu izohga mos so‘zni gapdan topib izohlab berishlari kerak.

Masalan, 1-konvertda quyidagicha topshiriq bo‘lishi mumkin:

1. **Beodob** insonlar hayotda uchrab turadi
- 2.Yo‘lda tanishlar **bexosdan** uchrashib qolishdi
- 3.Bir yurtni **sahiy** podshoh boshqarar edi
- 4.Bu binoda **xalqaro** anjumanlar o‘tkaziladi
5. **Biz yurtimizni** jon-dilimiz bilan sevamiz
  - xalqlar yoki mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatga doir so‘z;
  - tarbiya ko‘rmagan, tarbiyasiz;
  - kutmagan, xayolga kelmagan vaqtida;
  - ma’lum xalq, aholi yashab turgan joy o‘lka;
  - hech kimdan narsani ayamaydigan, tanti.

“Ha” yoki “Yo‘q” o‘yini. So‘zlar o‘quvchilarga izohi bilan birga o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar izoh to‘g‘ri bo‘lsa, “Ha”, noto‘g‘ri bo‘lsa, “Yo‘q” deb javob beradilar va noto‘g‘ri izohni to‘g‘rilaydilar.

“Juftini toping!” o‘yini. So‘zlar ma’nodosh va qarshi ma’noli so‘zlarni aniqlashda qo‘llaniladi. Masalan, ikki ustunda ma’nodosh so‘zlar tartibsiz holatda joylashadi. O‘quvchilar ikki ustundagi so‘zlarning ma’nodosh sherigini topishi kerak bo‘ladi.

Yugurmoq	Mamlakat
Tiniq	Xushro‘y
Go‘zal	Yuksak
behisob	Musaffo
Baland	Ko‘p
Davlat	Chopmoq

“Xat yozish” interfaol o‘yini. O‘quvchilarga xat yozilgan qog‘oz tarqatiladi. O‘quvchilar xatdagи tushirib qoldirilgan so‘zlarni xat mazmuniga moslab yozishlari kerak bo‘ladi. Xat mazmuni o‘quvchilar yoshiga mos, o‘tilayotgan fan mavzusidan kelib chiqib tanlanishi mumkin.

“Sirli quti” o‘yini. O‘quvchilar qaysi so‘zning ma’nosini tushunishga qiynalsalar, shu so‘zni yozib qutiga tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so‘zlar ma’nosи, imlosи, izohi ustida ishlanadi. Shunday qilib o‘quvchilar bilan birgalikda muloqot orqali ularning bilimlari yanada mustahkamlanadi.

## XULOSA

Dars jarayonida matndagi biror so‘zning ma’nosini tushunmaslik shu darsdan ko‘zda tutilgan maqsadlarning to‘laqonli amalga oshishiga to‘siq bo‘ladi. Ma’nosini tushunarsiz so‘z matn uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, uning mazmunini to‘la tushunmaslik, bu bilan bog‘liq holda asar g‘oyasini tushunmaslikka olib keladi yoki o‘qish darsining o‘quvchilarni so‘z boyligini oshirish maqsadi amalga oshmaydi. Shu sababda o‘zbek tili darslari davomida izohtalab so‘zlar ma’nosini o‘rganishda alohida tayyorgarlik ishlarini olib borish o‘quvchilar uchun ko‘plab qulayliklar yaratadi. O‘quvchilarning so‘z boyligi ortadi, muayyan so‘zning imlosi bilan tanishadilar, so‘zlarni ma’nodosh, ziddiga ko‘ra izohlay oladilar va shu bilan bir qatorda ularning talaffuz imkoniyati kengayadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, lug‘atlar bilan ishini dars jarayonida to‘g‘ri shakllantirish va ularni darsda qo‘llash katta samara beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Axtamov A. Ona tili (O‘zbek tili)ni o‘qitishda zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish // Scientific progress.2021. 3-soni.
2. Matchonov S. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. –T.: “Yangiyo‘l polygraph service ”, 2008
3. Tursunova D.T. Rus tilini chet tili sifatida o‘qtishda og‘zaki va yozma nutqning til va nutq aspektlari. <https://researchgate.net/publication/357866707>. 6-bet
- 4.“O‘zbek tili fanidan lug‘atlar ustida ishslash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish” metodik ko‘rsatmasi.- Toshkent, 2005
5. Yo‘ldoshev A. O‘zbek tilini o‘qitish(Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda).Toshkent-2015, 3-bet
6. Shayxislamov N. Ona tili darslarini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish. The 21<sup>st</sup> Century skills for Professional Activity, (4), 221-222